

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA TULKI OBRAZINI IFODASI

Shavkatova Fazila Yoqubjon qizi
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *O'zbek folklori janrlarida tulki obrazini nihoyatda aqlli, hiylagar va makkor obraz sifatida namoyon bo'ladi. Tulki, ramziy ma'noda odatda, quvnoq, mug'ombir, hamisha o'z foydasini ko'zlaydigan kishilar timsolini gavdalantirib keladi. U o'zida jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy qarashlarni aks ettirib, insonning zaif tomonlarini tanqid qiladi. Ushbu maqolada tulki obrazining tabiat va jamiyat bilan aloqasi, xalq og'zaki ijodidagi o'рни hamda ahamiyati, qolaversa, xalq ertaklaridagi talqini haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek folklori, ertak janri, tulki, obraz, ramz, mifologik motiv, madaniy meros.*

Abstract. *In the genres of Uzbek folklore, the fox character appears as an extremely intelligent, cunning and cunning character. The fox, in a symbolic sense, usually embodies the image of people who are cheerful, cheerful, always looking for their own benefit. It reflects the socio-ethical views of society and criticizes human weaknesses. This article talks about the connection of the image of the fox with nature and society, its place and importance in folklore, as well as its interpretation in folk tales.*

Key words: *Uzbek folklore, fairy tale genre, fox, image, symbol, mythological motive, cultural heritage.*

Абстрактный. *В жанрах узбекского фольклора персонаж лисы предстает чрезвычайно умным, хитрым и хитрым персонажем. Лиса в символическом смысле обычно воплощает образ людей жизнерадостных, жизнерадостных, всегда ищущих своей выгоды. Оно отражает социально-этические взгляды общества и критикует человеческие слабости. В данной статье говорится о связи образа лисы с природой и обществом, его месте и значении в фольклоре, а также его интерпретации в народных сказках.*

Ключевые слова: *узбекский фольклор, сказочный жанр, лиса, образ, символ, мифологический мотив, культурное наследие.*

Ertaklar – xalqning madaniy merosini, qadriyatlarini va hayotiy saboqlarini ifodalovchi beqiyos manba. Hayvonlar haqidagi ertaklar voqealarni o'ziga xos aks ettirish mezoniga ega. Bu xil ertaklarning



obrazlari ko'chma, ya'ni ramziy ma'no tashiydi. Hayvon personajlari insoniy nutqda so'zlab harakat qiladi, o'ylaydi, munosabatda bo'ladi. Bo'ringning o'ta go'l, laqmalik sifatlari; tulkining ayyor, makkorona harakatlari; echkinning oqil, dono tadbirkorligi hayotiy sifatlari emas, balki ibtidoiy tushunchalarning badiiy ijod doirasida shakllangan ramziy belgilaridir.

O'zbek folklori janrlarida tulki obarazi nihoyatda aqlli, hiylagar va makkor obraz sifatida namoyon bo'ladi. Tulki, ramziy ma'noda odatda, quvnoq, mug'ombir, hamisha o'z foydasini ko'zlaydigan kishilar timsolini gavdalantirib keladi. U o'zida jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy qarashlarni aks ettirib, insonning zaif tomonlarini tanqid qiladi. Uning xarakteri va xulq-atvori orqali ko'plab axloqiy saboqlarni anglash mumkin. Xalq ertaklarida tulki doimo o'z manfaatlarini himoya qilishga intilib, boshqalarni aldash va o'ziga bo'ysundirish orqali muammolarni hal etishga harakat qiladi. Shu bilan birga, tulki obrazining g'ayrioddiy vaziyatlarda ko'rsatgan qobiliyatlari va kulgili hikoyalari ertaklarning yumoristik badiiyatini yanada boyitadi. Zamonaviy filmlar va adabiyotlarda tulki, ko'pincha, qahramon sifatida paydo bo'ladi va u har doim o'ziga xos xarakteri hamda aqlli qarorlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, tulki obrazi hayotdagi qiyinchiliklarga moslashishi va o'zgaruvchanligini ko'rsatib, zamonaviy hikoya va ertaklarga qiziqarli o'lchovlar qo'shmoqda.

Tulki obrazining mifologik jihatlari jahon adabiyoti, jumladan o'zbek xalq ertaklarida ham o'z aksini topadi. Uning o'ziga xos ramziy sifatlari quyidagicha sanab o'tishni lozim topdik:

- 1) aqllilik va hiylagarlik;
- 2) o'zgaruvchanlik;
- 3) yovuzlik va jo'shqinlik;
- 4) tabiat bilan bog'liqlik;
- 5) komiklik;
- 6) ramziylik.

Tulki obrazi mifologiyasida ushbu jihatlari uning ko'plab hikoyalar va folklor elementlarida markaziy rol o'ynashiga sabab bo'ladi.

Tulki aqlli va hiylagar qahramon sifatida ko'plab xalq ertaklari, jumladan, “Tulki va qo'y” ertagida namoyon bo'ladi. Bu ertakda o'zining hiyla-nayranglari bilan tanilgan tulki qo'ylarni ovlash uchun ularga yaqinlashadi. U qo'ylarni aldab, ularga o'zlarini xavfsiz his



qilishlarini aytadi va qo'ylarni qo'lga olishga harakat qiladi. Ertakda tulki o'zini himoya qilish va o'z manfaatlarini ta'minlash uchun kurashayotgan aqlli qahramon sifatida ko'rsatiladi. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u bolalarga ehtiyotkorlik va ishonchni qanday boshqarish kerakligini o'rgatadi. Bu hikoya hiylanayranglardan ogoh bo'lish zarurligini, har doim ehtiyotkorlik bilan yondashish kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, bolalar uchun o'z qobiliyatlariga ishonish va qiyinchiliklarga qarshi turib, hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilish muhimligini uqtiradi.

Tulkining o'zgaruvchanlik jihatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tulki o'zini turli ko'rinishlarda namoyon etish qobiliyatiga ega. Bu esa uning sirli va qiziqarli tabiati bilan bog'liq. Tulkining o'zgaruvchanlik xarakteriga mos “Tulki va to'ng'iz” ertagini keltirish mumkin. Haqiqiy maqsadi to'ng'izni ovlash bo'lgan tulki turli xil ko'rinishlarda: bir payt samimiy do'st, boshqa payt esa ehtiyotkor maslahat beruvchi sifatida paydo bo'ladi. Ertak oxirida to'ng'iz tulkiga qarshi turib, uning hiylanayranglarini fosh qiladi va o'z hayotini saqlab qoladi. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati shuki, tulki obrazidagi o'zgaruvchanlik haqiqiy do'stlik va aldov o'rtasidagi farqni anglashga yordam beradi. Bu insonlarda hayotdagi murakkab vaziyatlarni tushunish va ularga to'g'ri yondashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, tulki obrazining xalq og'zaki ijodi janrlaridagi badiiy ifodasi ko'plab madaniy va adabiy an'analarda juda katta ramziy obraz sifatida namoyon qiladi. Ertaklardagi tulki nafaqat hayvon, balki ijtimoiy, ma'naviy, psixologik jarayonlarni ifodalovchi obraz tarzida harakat qiladi. Xalq ertaklaridagi tulki obrazining o'zgaruvchan va murakkabligi, uning ramziy xususiyatlarini yanada boyitadi. Shu bilan birga, zamonaviy adabiyot va folklorda ham yangi qirralarni kashf etishga turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oltin qiz. Bolgar xalq ertaklari. Toshkent: “Davr Press” NMU, 2019- 144 b.
2. www.tilvaadabiyot.uz
3. O'zbek tilining izohli lug'ati
4. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/tulki>



5. Асад Гулзодаи Бухорой. Куллиёти осор. Дар 3 чилд. Чилди 2. Шеърҳо, дostonҳо, ривоятҳо ва чистонҳо барои кӯдакону наврасон. – Т.: “Yangi nashr”, 2018. – С.433-434.

6. Асад Гулзодаи Бухорой. Насими Бухоро. (Шеърҳо, ғазалҳо, мухаммасҳо, рубоий ва дубайтиҳо). – Бухоро:“Бухоро”, 2001. С.107.

7. Асад Гулзодаи Бухорой. Крукуфаҳои Бухоро. – Душанбе: “Маориф ва фарҳанг”, 2004. С. 104.

8. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 629-634.

9. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. IMRAS, 7(1), 779-783.

10. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(24), 22-25.

11. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(22), 66-70.

12. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда дехқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In E Conference Zone (pp. 71-73).

13. To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

14. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – S. 47-49.

15. TORAYEVA, L. (2023). ЎРИМ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ОБРАЗЛАР ТАРКИБИ ВА БАДИИЙ-КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).

16. Omonovna, T. R. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. International Journal of Formal Education, 3(4), 34-39.

17. Omonovna, T. L. (2024). A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE. THE THEORY OF RECENT



SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(20), 199-204.

18. To‘rayeva, L. (2024). O‘ZBEK XALQ O‘YINLARIDA “BOBODEHQON” KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(20), 234-241.

19. To‘rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasida hayotsevarlik g‘oyalari. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).

